



ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” ASARIDA RANGLAR VA RAQAMLAR TAHLILI

Durdona Nishonboyeva Iqboljon qizi

Farg’ona davlat universiteti

ANNOTATSIYA: *Alisher Navoiy ijodining eng yuksak badiiy cho‘qqilaridan biri “Sab’ai Sayyor” dostonidir. Asar nafaqat syujet boyligi, balki ramziy tizim — ranglar, raqamlar, sayyoralar va timsollar uyg‘unligi bilan ham alohida ahamiyatga ega. Dostonda har bir rang, har bir raqam tasodifiy emas, balki Sharq falsafasi, islomiy-irfoniy qarashlar hamda qadimgi osmoniy tasavvurlarga tayangan holda tanlangan. Ayniqsa etti raqami va etti xil rangning qo‘llanilishi badiiy-falsafiy butunlikni yaratadi.*

Ushbu maqolada dostonning asosiy ramziy qatlamlari — ranglar tizimi, raqamlarning sirli ma’nosi, shuningdek Navoiy yaratgan ruhiy-mantiqiy uyg‘unlik tahlil qilinadi.

ANNOTATION: *One of the highest artistic peaks of Alisher Navoi's work is the epic poem "Sab'ai Sayyor". The work is of particular importance not only for its richness of plot, but also for the harmony of its symbolic system - colors, numbers, planets and symbols. Each color, each number in the epic was chosen not by chance, but based on Eastern philosophy, Islamic-mystical views and ancient celestial imaginations. In particular, the use of the number seven and seven different colors creates an artistic and philosophical whole.*

This article analyzes the main symbolic layers of the epic - the color system, the mystical meaning of numbers, as well as the spiritual-logical harmony created by Navoi.

Kalit so‘zlar: *Sab’ai Sayyor, yetti saroy, yetti sayyora, ruhiy kamolot, badiiy obraz.*

Keywords: *Sab’ai Sayyor, seven palaces, seven planets, spiritual perfection, artistic image.*



АННОТАЦИЯ: Одной из вершин художественного творчества Алишера Навои является эпическая поэма «Сабай сайёр». Произведение представляет особую ценность не только богатством сюжета, но и гармонией символической системы – цветов, чисел, планет и символов. Каждый цвет, каждое число в эпосе выбрано не случайно, а с учётом восточной философии, исламско-мистических воззрений и древних небесных представлений. В частности, использование числа семь и семи различных цветов создаёт художественно-философское целое.

В статье анализируются основные символические пласты эпоса – цветовая система, мистическое значение чисел, а также духовно-логическая гармония, созданная Навои.

Ключевые слова: Сабай Сайер, семь дворцов, семь планет, духовное совершенство, художественный образ.

Kirish

Adabiyot tarixida timsollar, ranglar va raqamlarning ramziy ma'nosi juda muhim o'rin tutadi. Sharq adabiy merosida ayniqsa raqamlar tizimi, ranglar sir-sinoati, koinot haqidagi qarashlar badiiy tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Bu an'anani eng mukammal davom ettirgan ijodkorlardan biri — buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiydir. Uning “Xamsa”sidagi har bir doston chuqur falsafiy qatlamlarga ega bo'lib, ular orasida “Sab'ai Sayyor” o'zining ranglar, raqamlar va sayyoralar tizimi bilan alohida ajralib turadi.

“Sab'ai Sayyor” — ramzlar olamiga to'la badiiy koinotdir. Unda yetti raqami markaziy o'rinda turadi: yetti sayyora, yetti saroy, yetti rang, yetti hikoya. Bu ketma-ketlik tasodifiy emas; Sharq falsafasi, tasavvuf ilmi, qadimgi osmonshunoslik va islomiy timsollar bilan uyg'unlashib, dostonga chuqur ma'naviy mazmun bag'ishlaydi.

“Sab'ai sayyor”- odil podshoh timsoli yaratilgan birinchi turkiy doston bo'lib, Navoiy o'ziga qadar badiiy adabiyotda yaratilgan dostonlar va to'plagan boy ijodiy tajribadan foydalangan holda mazmun e'tibori va g'oyaviy –badiiy xususiyatlari bilan salaflari asarlaridan farq qiluvchi yangi doston yaratadi.



Dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e'tiborni qaratib, iltizom (bir soʻzni biror parchaning barcha misra yoki baytlarida qoʻllab, shu soʻzning muhimligini taʼkidlash) badiiy sanʼat vositasida falakning yetti qavat ekanligi, yetti qavatdan tashkil topganligi, yer yuzi yetti iqlimga boʻlingani, yetti koʻk, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi.

Alisher Navoiy bu dostonni yaratishdan oldin tush koʻrganini, tushida 7 gumbaz, 7 gumbaz ichida 7 xil rangdagi mutasaddiyni koʻrganini, shu yerda 7 kun yurib, 7 afsona tinglaganini, bir moysafid unga avvalgi dostonlardagi qusurlarni tuzatishni soʻraganini asarning 8- bobida aytib oʻtadi. Doston yozishdan avval Bahrom haqidagi dostonlarni sinchiklab oʻib chiqadi. Ustozlaridan uzr soʻragan holda ularning asarlaridagi ayrim qusurlarni aytib oʻtadi. Shoirning fikriga koʻra, ularning birinchi aybi dard-u gʻamga yetarlicha ahamiyat bermaydi. Shohni ayshi uchun qasr qurilishi oʻrinsiz deb biladi. Yana biri esa malikalarning ertak aytishi, aslida malikalar ertak aytmaydilar, ular ertak eshitib katta boʻladi. Ertak aytishni malikalarga emas, boshqa obrazga koʻchiradi.

Asardagi ranglarning ham oʻziga xos xususiyatlari bor.

HAFTA NOMLARI	SAYYORALAR NOMLARI	RANGLAR	HIKOYALAR
SHANBA	ZUHAL (SATURN)	QORA	“FARRUX VA AXIY”
YAKSHANBA	QUYOSH	SARIQ	“ZAYD ZAHHOB”
DUSHANBA	OY	YASHIL	“SA’D” HAQIDAGI HIKOYAT
SESHANBA	MIRRIX (MARS)	QIZIL	“JUNA VA MAS’UD”



CHORSHANBA	UTORUD (MERKURIY)	MOVIY	“MEHR VA SUHAYL”
PAYSHANBA	MUSHTARIY (YUPITER)	SANDAL	“MUQBIL VA MUDBIR”
JUMA	ZUHRA (VENERA)	OQ	“DILOROM”

Bahrom boʻlib oʻtgan voqelardan va tinglagan hikoyatlaridan xulosa chiqarmaydi: oshiqlik va shohlikni bir qiyofada olib bormoqchi boʻladi, aslida esa chin oshiqlik toj-u taxt va boylik bilan muvofiq kelmaydi. Shoir Bahrom timsoli munosabati bilan oʻz davridagi baʼzi dolzarb masalalarga ham ishora qilib oʻtadi. Asarning oʻttizinchi bobida tush koʻrganligini aytadi. Tushiga koʻra, Bahrom Navoiyni nazm mulkida sohibqiron deb, dostoniga yuqori baho beradi va sulton Husayn Boyqaroni ogohlantirishini iltimos qiladi.

“Sabʼai Sayyor” dostoni Alisher Navoiy ijodining badiiy-falsafiy teranlikka ega durdonalaridan biri boʻlib, unda ranglar va raqamlar tizimi muhim semantik yuk koʻtaradi.

Yetti soni qadimda mukammallik, komillik va ilohiy tartib ramzi boʻlgan boʻlsa, Navoiy ushbu raqam orqali insonning ruhiy yetilish bosqichlarini ham yoritadi.

Ranglar va raqamlarning uygʻun qoʻllanishi dostonning strukturasini puxta bogʻlab, uni ramziy-majoziy qatlamga koʻtaradi. Natijada asar nafaqat axloqiy-hikmatli, balki kosmik-falsafiy mazmunga ega boʻladi. Shu jihatdan, “Sabʼai Sayyor” ranglar estetikasi va raqamlar ramziyati orqali insonning ichki olami, komillik yoʻli va borliqning tartibi haqida chuqur mushohada uygʻotadigan mukammal badiiy tizimni yuzaga chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Sabʼai sayyor. Mukammal asarlar toʻplami. 20 jildlik. -T.: Fan, 1992. 10-jild.
2. Сирожиддинов С., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. Т.: Тамаддун, 2019.



3. Хасанова М. Алишер Навоийнинг” Хилолия” касидасида етти сайёра тимсоли. Суз санъати журнали 2020 йил 2-сон.
4. Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfasi. -T.: Adabiyot va san`at, 1991.
5. О.Мадаев. Навоий суҳбатлари.”O`qituvchi”.-T.2018.